

## **ABDURAUUF FITRAT CHOLG‘U ASBOBLARI HAQIDA**

*Munisa Uzakova*

*BuxDU tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** Jadid ma’rifatparvarlari ijodida musiqaga munosabat muhim o‘rin tutadi. Jumladan, Abdurauf Fitratning “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” asari ancha material beradi. Maqolada serqirra olimning mazkur asaridagi cholg‘u asboblari haqidagi fikrlari tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar.** Sharq musiqasi, Sharq cholg‘u asboblari, tanbur, rubob, tor, g‘ijjak.

Abdurauf Fitrat ijodi serqirraligi bilan alohida e’tiborni tortadi. U nafaqat yetuk shoir, dramaturg, yozuvchi, balki zukko musiqashunos hamdir. Uning “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” asari bu jihatdan katta material bera oladi. Unda Fitrat Sharq musiqasi tarixiga obdon nazar soladi. Qolaversa, o‘zigacha yaratilgan nodir musiqa manbalaridan unumli foydalanadi. Asarning muhim jihati shundaki, Fitrat Sharq cholg‘u asboblarning har biriga alohida to‘xtaladi. U nihoyatda teranlik bilan tanbur, dutor, rubob, g‘ijjak, nay, qo‘shnay, qo‘biz kabi o‘nga yaqin musiqa asbobining tuzilishi, shakli, uzunligi, qismlari va vazifasini aniq ko‘rsatib beradi. Kitobning “O‘zbek musiqasi” deb nomlangan qismida Fitrat, mumtoz va xalq kuylari, qo‘shiqlari haqida fikr yuritir ekan, “cholg‘ularimiz haqida ma’lumot berish”ga kirishadi [1, 25]. Tanbur cholg‘usining xususiyatlarini, avvalo, uning lug‘aviy ma’nosini izohlashdan boshlaydi. Ya’ni musiqiy kitoblarja bu so‘zning “tunbura” shaklida ishlatilishi, “yunoncha”dan kelib chiqqanligi bilan bog‘liq taxminlarni keltiradi. Shu asosda “Ravzat us safo”da “tunbur”, “barbat”, O‘rta Osiyo xalqlari orasida “do‘nbura” shaklida qo‘llaniluvchi bu cholg‘u turi tanburning ikki torli ibtidoiy turi bo‘lganligini ilmiy asoslab beradi [1, 25]. Ya’ni bundan baxshilarning “do‘nbira” asbobi bilan tanburning bir narsa ekanligi, fonetik o‘zgarishga uchrab, shu shaklga kelganligini anglash

mumkin. Mashhur musiqashunos Darvish Ali Changiyning qarashlariga tayanib, Husayn Boyqaro, Shayboniy kabi podshohlar davrida mashhur bo'lganligi haqida yozadi. "Bizning cholg'ularimizning eng kattasi tanburdir, deb yozadi Fitrat. Shashmaqom kuylari tanburdagina ijro etiladir. Tanbur tut yog'ochdan yasaladir. Sopi kichginasida sakkiz detsimetr, kattasida to'qqiz detsimetrdir. Kosasi kattasida 13/32 santimetr, kichginasida 10/29 santimetr bo'ladir. Kosaning yuzini tut yog'ochdan yupqag'ina bir taxta bilan qoplaydirlar. Biroq bu taxtani pishib, tusi qaytqancha olovg'a tutadirlar; qizarib tusi qaytqandan so'ng, kosaga yopishtiradilar. Tanburning sariq simdan uch tori bo'ladir. O'rta torining ikki yon toridan ozgina yo'g'on bo'lushi matlubdir" [1,26]. E'tibor berilsa, Fitrat tanburning qanday yasalishi, uning o'lchamlari, qismlari haqida aniq va mufassal fikr yuritgan. Eng muhimi, bu cholg'u asbobining tayyorlanish jarayoni ham o'ziga xos izchillikda, har bir detal va harakatlari bilan tushuntirib berilgan. Fitrat rubob haqida to'xtalarkan, avvalo, bu cholg'u asbobiing qadim tarixi, paydo bo'lishi, u haqdagi asarlar bo'yicha qimmatli ma'lumotlarni beradi. Jumladan, uning ta'kidlashicha, Hindistondan o'zi olib kelgan "Sorang" nomli cholg'u asbobi rubobga yaqin ekan. Olim shu asosda o'rgangan manba Darvesh Aliyning "Risola" asaridagi ma'lumotlarga asoslanib, uning Balxda yasalgani, Muhammad Xorazmshoh zamonida rivoj topganini ilmiy asoslaydi. Olim bu cholg'uning gavdasi to'rt qismdan iboratligi, har bir qismning tuzilishi, o'lchovlarini aniq ko'rsatadi va yozadi: "... ichakdan yasalgan besh tori borkim, "skripka" torlariga o'xshab, yo'g'onlikda farqlidir. Bundan boshqa o'n ikkita "tor osti" torlari bor. Bular tanbur simidandir. Cholg'uvchi rubob chalganda, bularni chertmaydir. Bularning xizmati asl torlarga chertish ta'siri bilan titrab, asl tor tovushiga o'zlarining mungli, titrak tovushlarini qo'shmakdir" [1, 28]. Bu qomusiy ijodkor va olimning rubob cholg'usi haiqdagi bugungi musiqashunoslik uchun ahamiyatli fikrlaridir. U nihoyatda zukko va musiqani qalban kuchli his qiluvchi mutaxassis sifatida rubobning xususiyatlarini g'oyat teran ochib bergan. Xususan, undan chiqadigan kuylarning asosiy torlar va "tor osti" torlarning vazifasining aniy

ochib berilishi istagan shu soha mutaxassisini hayratga solishi tabiiy. Shu asosda Fitrat qo‘biz, karnay, surnay, nog‘ora, doira, chang kabi o‘nlab cholg‘u asboblarning tuzilishi, shakli, ohang chiqarish usullari, o‘lchovlari va vazifalari haqida mufassal fikr yuritgan. Keiyngi maqolalarimizda bular haqidagi mulohazalarimizni davom ettiramiz, albatta. Ko‘rinadiki, “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” asari Fitratning musiqqa bilimdoni ekanligini, Hamza ta’biri bilan aytganda, “musiqiy lahn”ga ega ekanligini ko‘rsatadi.

#### Адабиётлар

1. Fitrat A. O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi. [www. Ziyo.uz](http://www.Ziyo.uz)
2. Нурматов Х. Музыка ва эстетик маданият. Музыка ўқитувчилари учун методик тавсиялар. –Т.: ТДПИ, 1992.